

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO YUQORI TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK-TEXNIKA  
INSTITUTI**

**“MATERIALSHUNOSLIK VA YANGI MATERIALLAR TEXNOLOGIYASI”  
KAFEDRASI**

**5140900 – Kasb ta`limi (5520600 – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik  
ishlab chiqarishlari jixozlari va ularni avtomatlashtirish) yo`nalishi bo`yicha**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: FSR50 NS rusumli SBD revolver kallakli frezalash – parmalash  
dastgohining “Podkladka” detaliga mexanik ishlov berish texnologiyasini va  
mavzuga oid maxsus fan o`qituvchisining o`quv - metodik majmuasini yaratish.**

**Bajardi: 10-08 MMTJ guruxi talabasi  
Ikromov Zavqidin**

**Rahbar: t.f.n., kat o`qit. Z.F.Djumayev**

**Bitiruv malakaviy ishi kafedra mudiri tomonidan ko`rib chiqildi va himoyaga  
ruxsat etildi.**

**“M va YaMT”  
kafedrasi mudiri: dots. N.F. O`rinov**

**“T va EST” fakulteti dekani: dots M.I. Temirova**

**Buxoro – 2012 y.**

## **Kirish**

XXI asrda kelib texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hisobiga mashinashunoslik sohasi ham eng yuqori cho`qqilarni zabt etish bilan butun dunyoga rivojlantirilmoqda. Mashinasozlikning rivojlanish va rivojlangan davlatlar safidan o`rin olishini o`z oldiga maqsad qilib Respublikamiz xalq – xo`jaligining barcha tarmoqlari kabi mashinasozlikda xam ilg`or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ishlab chiqarishni jaxon andozalari darajasiga olib chiqishga xarakat qilmoqda.

O`zbekistonimizni xar tomonlama rivojlanishi uchun yetuk kadrlarni tayyorlash, ularga ilm – fanning eng ilg`or yutuqlari orqali bilim berishda prezidentimiz aytganlaridek sharq faylasufining hayotbaxsh va teran buloqlaridan baxramand bo`lish muhimdir.

Xalq xo`jaligini xar tomonlama rivojlantirish, mexnat samaradorligini oshirish maxsulot sifatini yaxshilash fan asosida yaratilgan texnikaga bog`liqdir. Texnika va texnologiyaning jaxon suratlarida rivojlanish, avtomatlashtirish va boshqarish tuzulishini keng miqyosda qo`llanilishi texnika fanlariga bo`lgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

Ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga yangi texnika yetkazib beradigan mashinasozlik mamlakatni texnik jixatdan rivojlanishini belgilaydi va yangi mustaqil respublikamizning moddiy bazasini yaratishda xal qiluvchi axamiyatga ega. Mashinasozlikdagi ishlab chiqarish vositalarini, shuningdek xo`jaligimizning barcha tarmoqlarini zamonaviy yangi texnika bilan qurollantirish uchun fan va texnikaning eng songi yutuqlari asosida yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish zarur. Mashinasozlik sanoatida metal va metalmas materiallardan xilma – xil detallar tayyorlash uchun zamonaviy metal kesish dastgohlaridan foydalaniladi. Ular yo`nish , teshish, teshiklarni kengaytirish , randalash, jilvirlash , rezba qirqish va tish qirqish kabi dastgohlardir. Endilikda zamon talabi va fan texnikaning rivojlanib borishi bilan sonli dasturda boshqariladigan (SDB) avtomat dastgohlari yaratildi. Vaholanki bunday tezkor, katta quvvatki, o`ta aniqlikdagi avtomatik linyalar uchun aniq konstruksiyadagi kesuvchi asboblar loyahasigina, ishlab

chiqarilgan detalning sifatini yaxshilash, narxini arzonlashtiradi. Ma`lumki har bir mexanik va konstruktorlar oldidagi asosiy vazifa u yaratayotgan detal yoki uskuna yuqori sifatli, uzoq muddat ishlay oladigan, juda puxta va mustaxkam bo`lishi bilan birga uni tayyorlash qulay va arzol bo`lishidir. Bu kabi talablarga javob izlash uchun eng birinchi kesib ishlashga qo`llaniladigan kesuvchi asbobning geometriyasini to`g`ri tanlab ishlanadigan detal materialining xossalari o`rganib chiqib, kesuvchi asbob konstruksiyasi loyixalanadi. Shuning uchun mashinasozlikni rivojlantirishga xar doim xam birinchi darajali ahamiyati berilgan va berilmoqda.

Mustaqillikning birinchi yillaridanoq Asaka "O`zDEU Auto" qo`shma korxonasi qurilishi va bu korxonada yengil avtomobillarning, Samarqandda "Sam KochAuto" qo`shma korxonasi mikroavtobus va yuk tashuvchi avtomobillarni ishlab chiqarish boshlanishi va boshqalar bunday dalolat bermoqda.

Mashinasozlik sanoatining rivojlanganlik darajasi unda ishlatilayotgan texnologik jarayonlarning samaradorligini bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilayotgan maxsulotning sifatini oshirish va uning tannarxini kamaytirish Tovar raqobatbardoshligini oshiradi, ishlab chiqarishining yanada rivojlanishiga va xalq farovonligini oshishiga olib keladi.

Ishlab chiqarilayotgan maxsulotning sifat va tannarxi, uning konstruksiyasini puxtaligini, ishlab chiqarish madaniyati va boshqa faktorlar qatoriga ishlab chiqarish texnologiyasiga xam ko`p jihatdan bog`liq. Mashinaning konstruksiyasi avvalo xizmat vazifasini bajarishdan tashqari, texnologiyasoz xam bo`lishi kerak. Texnologiyaning mukammalligi tanlangan dastgohlarning hozirgi zamon talablariga, javob berishiga, ularda fundamental fanlarning eng oxirgi yutuqlarini qo`llashga va ularning tejamkorligiga bog`liq. Asboblarni ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtiriladi, mexnat unumdorligini oshirib, ishlab chiqarilayotgan kesuvchi asboblarni yuqori sifatli asbobsozlik materiallaridan tayyorlashni ta`minlash, yeyilishga chidamli materiallarni asbobsozlikda keng ko`lamda qo`llash, kesuvchi asboblarni ishlab chiqarishda soddalashtirilgan texnologiyalarni qo`llash va asboblarni tayyorlashda mahkamlashning zamonaviy texnologiyalarning qo`llash

asbobsozlik sanoatini rivojlantirishda asosiy yo`nalish sifatida namoyon bo`lib turibdi.

Ishlab chiqarilayotgan texnologik jarayonning juda ko`plab variantlari bo`lishi mumkin. Ulardan samaradorligini eng balandlari texnika iqtisodiy xisob – kitoblarda EXM larni qo`llash yo`li bilan tanlab olish lozim.

Turli xildagi materiallardan kerakli va zarur buyumlar olish uchun ularga turli xildagi ishlovlar beriladi. Masalan, metal va qotishmalar quyiladi, prokatlanadi, presslanadi, shtaplanadi va qirindi kesib olish yo`li bilan shaklga keltiriladi. Dastgoxsozlik va asbobsozlik sanoati mashinasozlikning yuragi xisoblanadi. Turli xildagi mashina va apparatlar ishlab chiqarishda metal kesish asboblari juda katta ahamiyatga kasb etadi. Metallarga mexanik ishlov berish jarayonni samaradorligini ashirish ushuni kesuvchi asboblarni ishlab chiqaruvchi zavod sexlarni sonlarini qisqartirib xar bir zavod yoki sexda ishlab chiqarilayotgan asboblar turini kamaytirish va maxsus asboblar ishlab chiqarishni oshirish kerak.

Metallarni kesib ishlash jarayonlarini haqiqiy ilmiy tekshirishi 1870 yilda I.I. Temining “Сопротивление металлов и дерева резанию” kitobini nashr etilishidan boshlangan. Bu kitob kesish jarayonining fizik asoslarini nazariy o`rganishiga asos soldi. I.A Temining nazariy xulosalari rus olimlari Malishev (1888), P.A. Afanasev (1893), A.A Briks xissa qo`shgan. Uning 1893 yilda “Работа и усилия необходимые для отделения металлический стружек ” kitobi nashrdan chiqib , aloxida diqqatga sazavor bo`ldi.

Eng yirik ishlardan ilmiy ishlardan 1880 – 1906 yillarda o`tkazilgan F. Teynov tadqiqotlari bo`ldi. Teylovning metallarni kesish va ishlab chiqarishni tashqil etish bo`yicha qilgan ishlarning natijalari hozirgi paytda xam kesish maromlarini va kesish kuchlarini aniqlash u yaratgan bog`liqliklardan foydalanilmoqda.

XX asr boshlaridan kesish kuchini o`rganish bilan bir qatorda kesuvchi asbobning turg`unligi va kesishdagi issiqlik xodisalarini xam o`rganila boshlanadi.

1914 – 1915 yillarda Petrogrog politexnika institutida Ya. Petrogrogning tadqiqotlari aloxida e`tiborga loyiqdir. Bu tadqiqotlar metallarning kesish

jarayonining o`rganinshdagi yangi yo`nalishda asos solgan. Bu ishlar natijasida (dinamometr) maqolalarida e`lon qilindi.

A. Temi, K.A. Zvorikin. Ya. U.Usachev kabi olimlar metallarni kesish mexanikasi va fizikasi asoslarini yaratgan.

Mexanik ishlov berish jarayonlarini tadqiq qilish borasida o`zbek olimlaridan F. Yoqubov, M. F. Bobabekov, G`, Maxmudov va boshqalar kesib ishlashning ilmiy asoslarini yaratishda munosib xissa qo`shganlar.

Respublika xukumati va prezidenti olib borayotgan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatda mamlakat xayotining barcha jabxalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajakka kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruxida tarbiyalashda juda katta e`tibor berilmaqda. Xozirgi kunda ta`lim olayotgan yoshlar respublikamizning kelajagidir. Bu sharaflari vazifani bajarish o`qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli yuksak malakali o`qituvchilar tayyorlash ularni malakasini oshirish masalalariga katta e`tibor qaratilyapti.

Xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari kabi ta`lim soxasida xam ilg`or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta`lim mazmunini jaxon andozalari darajasiga olib chiqishga xarakat qilmoqda. Xozirgi paytda oily ta`lim muassasalarida va kasb – xunar kollejlarida yangi pedagogic va axborot texnologoyalarini qo`llash va zamonaviy o`quv uslubiy majmualarini ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazavor ishlar amalgam oshirilmoqda. Shuningdek ta`lim tizimi, takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta`lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalgam oshirish ta`lim soxasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning goyalari va davrimizning ilg`or yangiliklarini o`zida mujassamlashtirgan metodik tazimning yuritilishiga asos bo`lmoqda.

Kasb – xunar kollejlarining yo`nalishlari va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda talim tizimi ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog`lanishi bilan lozim. Buning uchun kasbiy ta`lim fani o`qituvchilari maxsus fanlarni o`qitish uslubiyati, mutaxassislikning maxorat va amaliy ko`nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Xozirgi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturidan kelib

chiqqan xolda jaxon andozalariga moslashuv extiyojidan kelib shiqqan xolda kasbiy ta`lim o`qituvchi olishi va kadrlarning asosiy qismi yangi texnika texnologiyani chuqur bilishi, xamda taxlil qila ilishi va yangilik yaratish asos bo`lmaqda.

Ta`lim jarayonida yangi pedagogic texnologiyalar va faol usullaidan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbqiq qilish ko`proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg`or tajribalardan saboq berishning turli yo`llaridan keng foydalanish maqsadida muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi : FSR50NS rusumli SBD dastgoxining “prokladka” detallariga mexanik ishlov berish texnologiyasining va mavzuga oid maxsus fan o`qituvchisining o`quv – metodik ma`nosini yaratish mavzusidagi bitiruv malakaviy ish detallariga mexanik ishlov berish jarayoniga keng qo`llanilib kelinayotgan dastgoxlarning ish unumdorligini va ishlov berilayotgan detall aniqligini oshirishdan iborat. Bugungi kunda ishlov berilayotgan detall aniqligini oshirish va uni fan narxini kamaytirish muammolarini dolzarbligicha qolmoqda. Shuning uchun bu borada ilmiy va amaliy izlanishlarni amalgam oshirish dolzarb xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi FSR50NS rusumli 2 shpendelli silliqdash yassi dastgoxli “prodladka” detalli mexanik ishlov berish texnologiyasini mavzuga oid maxsus fan o`qituvchisining o`quv – metodi majmuasini yaratish.

Bitiruv malakaviy ishini vazifasi detalning konstruksiyasi, xizmat vazifasi, detalning texnologiyasini taxlil qilish ishlab chiqarishni tashkil etish tipini aniqlash detal uchun tayyorlanma tanlash asoslash mexanik ishlov berish ishlab chiqish texnologik operatsiyalarni loyixalash, quyumlarni xisoblash kesish rejimlarini xisoblashi, texnologik jixozlarini tanlash texnik meyorlash dastgox moslamasini ishlab chiqish va xisoblash nazorat asbobini loyixalash maxsus kesish asbobini loyixalash dastgoxida ishlash xafvsizligi choralarini belgilash mavzuga oid maxsus fan o`qituvchisining o`quv – metodik majmuasini yaratish.

Mavzuning o`rganinh darajasini qiyosiy taxlili bitiruv malakaviy ishi asosini detallarga mexanik shilov berish texnologiyasi va unga oid maxsus fan

o`qituvchisining o`quv – metodik majmuasini yaratish borasida mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi olimlar tomonidan omalga oshirilgan ilmiy xamda amaliy ishlar taxlil etadi. Ular asosan detallarga mexanik ishlov berish texnologiyasining jarayoniga keng ko`llanilib kelinayotgan dastgoxlarning ish unumdorligi va ishlov berilayotgan detal aniqligini oshirishni taminlab biladigan malakali ishchi kadrlar tayyorlashdan iborat.

Bugungi kunda ishlov berilayotgan detal aniqligini oshirish va uni tan narxini kamaytirish muammolari dolzarbligiga qolmoqda. Shuning uchun bu borada ilmiy va amaliy izlanishlarni amalgam oshirish maqsadiga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi : Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida quyidagilarga erishiladi : - detalning konstruksiyasi , xizmat va vazifasi , chizmaning texnik nazorati , detalning texnologiyasozligi taxlil qilinadi ishlab chiqarishni taxlil etish tipi aniqlanadi. Detal uchun tayyorlanma fanlarni va asoslarni mexanik ishlov berish marshuruti ishlab chiqiladi, texnologik operatsiyalar loyixalanadi, quyumlar kesish rejimlari xisoblanadi.

- Texnologik jixozlar tanlanadi dastgoh moslamalari ishlab chiqiladi va xisoblanadi , nazorat va maxsus kesish asboblari loyixalanadi;

- Mavzuga oid maxsus fan o`qituvchisining o`quv metodik majmuasi yaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmati va obyektlari: FSR50NS rusumli 2 shipendeli yassi siriqlash dastgohi va uning ‘prokladka’ detalini tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy oxamiyati FSR50NS 2 shipendeli yassi siriqlash dastgohi va uning “prokladka” detalining mexanik ishlov berish texnologiyasini va mavzuga oid maxsus fan o`qituvchisining o`quv metodik majmuasini yaratish mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi natijalari Buxoro mexanika ta`mitlash zavodi ishlab chiqarish taqdim etiladi va kasb – xunar kollejlarning o`quv karayoniga joriy qilinadi.

Natijalarning e`lon qilinganligi : Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo`yicha bitta ilmiy maqola Buxoro YuTMTI da o`tkazilgan “ishlab chiqarishni yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiyalash ta`lim tizimining ustuvor vazifasi ”

mavzusida “ Mustaxkam oila yiliga” bag`ishlangan professor o`qituvchilar va talabalar XXXV ilmiy amaliy anjumani maqolalar to`plamida chop etilgan.

## **I. TEXNOLOGIK QISMI.**

### **1.1. Detalning konstruksiyasi va xizmat vazifasi.**

Detall “Podkladka” kimyo sanoati mahsulotlarda tana zichligini ta`minlash uchun xizmat qiladi. Detall ” листовой” po`lat 3 dan tayyorlanadi, uning bir tomoni me[anik ishlov berish yo`li bilan 6 darajali silliqlikka olib keladi va shu bilan birikadigan tana detall bilan zichligi oshadi. Detallda ko`zda tutilgan F50H7 TESHİK ORQALI MASHINANING ishchi organlari tanadan chiqadi. Detallni tana detall bilan biriktirish uchun 6ta F11 teshik bajarilgan. Ular orqali bolt o`tib detallni rezva yordamida tana detalli bilan biriktiradi va uning tana detalliga tegib turishini ta`minlaydi. Detall konstruktiv jihatdan oval shaklida bajarilgan va ko`chirilib oluvchi qurilma yordamida frezalanadi yoki sonli boshqariluvchi frezalar dastgohida ishlov beriladi. Detallning asosiy bazasi ishlov beriladigan tekislikdir. Bu yuza detallning holatini tana detalliga nisbatan belgilaydi. Detailning 2ta F90H7 teshiklari yordamchi bazalardir chunki bu teshiklarda nisbatan mehanizmning ishchi organlari belgilanadi. Detallning qolgan yuzalari erkin yuzalar bo`lib ular faqat uning konstruksiyasini chiqaradi.

### **1.2 Chizmaning texnik nazorati**

Detailning ishchi chizmasida uning konstruksiyasini to`g`ri tasavvur qilish uchun kerakli proyeksiyalarni berilgan hamma yuzalarning suyuqlik darajalari qo`yilgan. O`lchamlarning aniqlik kвалitetlari ko`rsatilgan. Chizmada detailning materiali uni ishlab chiqarish uchun texnik talablar keltirilgan. Xulosa qilib shuni ta`kidlash kerakki berilgan detailning ishchi chizmasi hamma kerakli ma`lumotlarga ega va detailni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqarish uchun yetarli

### **1.3. Detalning texnologiyasozligi tahlili.**

Detailning konstruksiyasi oddiy yuzalardan tashkil topgan tekis va silindrik. Faqat detailning kontrugi murakkab shaklga ellipsga o`xshaydi. Lekin unga ham yoki sonli dastur bilan boshqariladigan frezalarsh dastgohida yoki frezlash ko`chirib olish dastgohida ishlov berish mumkin. Detall uchun tayyorlanma mistonoy po`latdan olingidan uchun maxsus kesib tushuruvchi dastgohda olinadi.

Ishlab chiqarish tipiga bog'liq bo'lgan holda tayyorlanma listdan kesib olinishi ham mumkin. Detall yuzalariga mexanik ishlov berish nuqtai nazardan ham qiyinchilik tug'dirmaydi. O'lchamlarning aniqligi va sirtlarining tozaligi nuqtai nazaridan detall texnologiyasoz o'lchamlarning eng aniq bajarilishi kerak bo'lgan. Sirtlarining eng toza qismi 7 darajali tozalikka ega.

Xulosa qilib shuni aytish o'rinliki, detall texnologiyasoz konstruktiv o'zgartirishlarga ehtiyoj yo'q. Hamma operatsiyalar odatdagi dastgohlarga bajarilishi mumkin.

#### 1.4 Ishlab chiqarishni tashkil qilish tipini aniqlash.

Ma'lumki, ishlab chiqarish tipi shartli ravishda 3ga bo'linadi. Bular - ommaviy seriyalar ishlab chiqarish va yakkalar. Ishlab chiqarish tipi seriyalar koefitsientini yordamida aniqlanadi.

$$K_c = \frac{\tau_r}{T_{o'r} \cdot d}$$

Bu yerda  $\tau_r$  chiqarish vaqti min.

$T_{o'r} \cdot d$  Operatsiyalar bo'yicha o'rtacha dona vaqti, min Chiqarish fakti quyidagicha aniqlanadi.

$$\tau_r = \frac{F_x \cdot 60}{N}$$

Bu yerda  $F_x$  jihozlarning yillik vaqt jamg'armasi soati  $N$ -yillik ishlab chiqarish dasturi dona yillik. Yillik ishlab chiqarish dasturi topshiriqning shartiga ko'ra beriladi.  $N=75000$  dona yil.  $F_x=4015$  soat 2ish kuni uchun [1]

Berilganlarni formulaga qo'yib topamiz

$$\tau_r = \frac{4015 \cdot 60}{75000} = 3,2 \text{ min}$$

Operatsiyalar bo'yicha o'rtacha dona vaqtni topish uchun texnologik jarayonlarning taxminiy marshuruti ishlab chiqarilishi kerak.

Qutida ishlab chiqarish marshuruti keltiriladi.

I. tayyorlanma shtumpovka

## II. Kesib kengaytirish operatsiyasi.

1. Ikka teshik  $\Phi 90$  H 7 xomaki kesib kengaytirilsa .
2. Ikka teshik toza kesib kengaytirilsa .
3. Ikka teshik olmos bilan kesib kengaytirilsa.

## III. Frezalash operatsiyasi .

1. Detallning tashqi kountiri frezalansin.

## IV. Frezalash operatsiyasi.

1. Detallning ishchi tekisligi xomaki frezalansin.
2. Detallning ishchi tekisligi toza frezalansin.

## V. Formalash operatsiyasi .

1. Uchta F 11 formalansin.
2. Uchta F 11 formalansin.

## VI. Yuvish operatsiyasi .

## VII. Nazorat operatsiyasi .

Yuqora keltirilgan operatsiyalar uchun dona vaqti aniqlanadi.

## II. Kesib kengaytirish operatsiyasi.

1. Xomaki kesib kengaytirish .

$$T_0 = 0,0003 \cdot dl$$

Bu yerda  $d$  – ishlov berish diametri , mm ,  $l$  - ishlov berish uzunligi.

$$T_0 = 0,0003 \cdot 85 \cdot 20 = 0,51 \text{ min}$$

2. Toza kesib kengaytirish

$$T_0 = 0,0004 \cdot dl = 0,0004 \cdot 88 \cdot 20 = 0,7 \text{ min}$$

3. Nozik kesib kengaytirish

$$T_0 = 0,0006 \cdot dl = 0,0006 \cdot 90 \cdot 20 = 1,08 \text{ min}$$

Umumiy asosiy vaqt .

$$T_{l,0} = T_1 + T_2 + T_3 = 0,51 + 0,7 + 1,08 = 2,29 \text{ min}$$

Dona vaqtini aniqlash uchun datgoh koeffitsientiga qulay ko'paytiriladi. Kesib kengaytirish dastgohlari uchun :  $K=2,75$  holda

$$T_{di} = T_{l0} \cdot k = 2,29 \cdot 2,75 = 6,29 \text{ min}$$

Teshiklar soni ikkita bo'lganligi uchun dona tahlili ikkiga ko'paytiriladi .

$$T_{di} = T_{l0} \cdot k = 2 \cdot 6,29 = 12,595 \approx 12,6 \text{ min}$$

III. Frezalash operatsiyasi .

1. Detallning tashqi kountiri frezalansin

$$T_0 = 0,007l$$

Bu yerda l - frezalash uzunligi  $l = 2,145 + \pi D = 2,145 + 3,14 \cdot 190 = 886,6 \text{ min}$

U holda  $T_0 = 0,007l = 0,007 \cdot 886,6 = 6,20 \text{ min}$

$$T_d = T_0 \cdot 1,51 = 6,20 \cdot 1,51 = 9,38 \text{ min}$$

IV. Frezalash operatsiyasi .

1. Detallning ishchi tekisligi xomaki frezalansin.

$$T_0 = 0,006 \cdot l$$

1-bu yerda frezalash uzunligi

$$L = 145 + 2,95 = 335 \text{ mm.}$$

Formulaga qarab topamiz.

$$T_0 = 0,006 \cdot l = 0,006 \cdot 335 = 2,01 \text{ min}$$

2. Detallning ishchi tekisligi toza frezalansin.

$$T_0 = 0,006 \cdot l$$

$$l = 145 + 2,95 = 335 \text{ min}$$

Umumiy asosiy vaqt

$$T_0 = 2,01 + 1,34 = 3,35 \text{ min}$$

Dona vaqti

$$T_u = T_0 \cdot k = 3,35 \cdot 1,5 = 5,06 \text{ min}$$

V. Formalash operatsiyasi.

13 ta F 11 teshik formalansin.

$$T_0 = 0,00052 \cdot dl = 0,00052 \cdot 11 \cdot 20 = 0,11 \text{ min}$$

Dona vaqti aniqlanadi.

$$T_0 = 0,11 \cdot k = 0,11 \cdot 1,30 = 0,143 \text{ min}$$

Teshiklar soni 6 ta bo'lganligi uchun dona vaqti ikkiga ko'paytiriladi.

$$T_d = 0,148 \cdot 2 = 0,297 \text{ min}$$

O'rtach vaqti aniqlanadi.

$$T_{0'rt} = \frac{\sum_{ic}^n Td}{n} = \frac{12,6 + 9,38 + 5,06 + 0,297}{4} = 6,83 \text{ min}$$

Seriya koeffitsienti aniqlanadi .

$$k_c = \frac{3,2}{6,83} = 0,46$$

Bu koeffitsient ommaviy ishlab chiqarish tipiga xos keladi.

Tayyorlanma olish usulini tanlash .

Tayyorlanma olish uchun qator omillarga bogliq bolib asosiylari quyidagilardir.

Detalning materialiga olchamlarning aniqligiga , detallarning gabaretiga, ishlab chiqarish tipiga .

Detalning materiali polat 3GOST 1453789 ishlab chiqarish tipi ommaviy bolganligi uchun tayyorlanma olish usuli sifatida kesib tushirish usuli qabul qilingan.Shtamplangan tayyorlanmalar uchun qiymati (narxi) quyidagicha fomula yordamida aniqlanadi.

$$S_T = \left( \frac{C_i}{1000} \cdot Q k_T T_C K_Q K_m K_P \right) - (Q - q) \frac{S_r}{1000} \text{ so'm}$$

Bu yerda  $C_i$  -1tonna asos tayyorlanmaning qiymati so'm

$Q$ -tayyorlanmaning massasi kg

$q$ - tayyor detalning massasi,kg

$S_r$ - 1tonna chiqindining qiymati,so'm

$K_t, K_c, K_b, K_p, K_n$ - mos ravishda tayyorlanmaning aniqlagi oshirilsa murakkablik

guruhga materialning markasiga va ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lgan

koeffitsientlar 1 tonna asos shtamplangan tayyorlanmaning qiymati 10 000000 so'mni

tashkil qiladi.1 tonna asos chiqindining narxi 300 000 so'mni.Detalning massaning

ishchi chizmasida berilgan. Tayyorlanmaning massasi esa detallnikini 1,25 koeffitsientini ko'paytirib topamiz.

$$Q = q \times 1,25 = 49 \times 1,25 = 6,125 \text{ kg}$$

$K_t = 1$  2 sinf aniqligida tayyorlanmalar uchun  $k_c = 0,75 - 1$  guruh murakkabligi tayyorlanmalar uchun Berilganlarni formulaga qo'yib topamiz

$$S_T = \left( \frac{10000000}{1000} \cdot 6,125 \cdot 0,75 \cdot 0,87 \right) - 6,125 - 4,5 \frac{300000}{1000} = 39598,12 \text{ so'm}$$

### 1.5. Detal uchun tayyorlanma tanlash va asoslash.

$T_0$  – Ishlov birish yunalishlarini  $n$  ta qiymati ham aniqlangach  $T_{don}$  qiymatini aniqlab olish lozim, buning uchun kalkulyatsiyali donabay vaqtni (4) formula yordamida aniqlab olamiz.

$$T_{don} = \varphi_k T_0$$

Bu yirda  $\varphi_k$  ning qiymatini jadvaldan har bir opirasiya uchun tanlab olamiz.

$$T_{don} = \varphi_k T_{01} = 1,36 \times 5,61 = 7,629 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{02} = 1,36 \times 2,75 = 3,74 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{03} = 1,36 \times 0,85 = 1,156 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{04} = 1,36 \times 1,8 = 2,448 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{05} = 1,75 \times 4,004 = 7,007 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{06} = 1,36 \times 0,85 = 1,156 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{07} = 1,36 \times 1,8 = 2,448 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{08} = 1,36 \times 2,75 = 3,74 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{09} = 1,75 \times 1,61 = 2,817 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{010} = 1,75 \times 0,004 = 7,007 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{011} = 1,75 \times 0,32 = 0,56 \quad [\text{min}]$$

$$T_{don} = \varphi_k T_{012} = 3,23 \times 4,95 = 15,988 \quad [\text{min}]$$

Aniqlangan operatsiyalarga asosan donabay ishlab chiqarishning o`rtacha vaqti quyidagi formula yordamida topiladi.

$$T_{don} = \frac{\sum^n T_{don}}{n} \text{ муш}$$

Bu yerda

$T_{don. (don.k)}$  – kalkulyatsiyali donabay vaqti minut hisobida

$n$  – operatsiyalari soni.

$$\begin{aligned} \dot{O}_{dona} &= \frac{\sum^n T_{dona}}{n} \text{ \u0438\u0435\u0442 } = \\ &= \frac{7.629+3.74+1.156+2.448+7.007+1.156+2.448+3.74+2.817+7.007+0.56+15.988}{12} = 4.641 \end{aligned}$$

Aniqlangan o`rtacha donabay vaqtdan foydalanib ishlab chiqarish turini aniqlash lozim.

$$R_s = \frac{t_v}{T_{urdona}} \text{ [dona]}$$

Bu yerda  $t_v$  – ishlab chiqarish taktikasi

$T_{urdon}$  – barcha donabay vaqtlarning yig`indisi.

Bu yerda  $t_v$  – ishlab chiqarish taktikasi quyidagi ifoda orqali aniqlab olinadi.

$$t_v = \frac{F_d \cdot 60}{N} \text{ min /donat}$$

Bu erda  $F_d$  – jihozni bir yillik ish vaqti

N – bir yilda ishlab chiqariladigan detallar soni dona hisobida.

$$t_v = \frac{F_d \cdot 60}{N} = \frac{4010 \cdot 60}{55000} = 4,37 \text{ min/dona}$$

Aniqlangan qiymatga asosan seriya koefficientini topish mumkin.

$$R_s = \frac{t_v}{T_{ur\,dona}} \frac{4.37}{4.641} = 0.941 \approx 1$$

$R_s = 1$  ga teng qilib tanlanib olinadi shuning uchun ishlab chiqarish turi, ommaviy ishlab chiqarish hisoblanadi.

### 1.6. Mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqish.

Ishlab chiqarishda katta bosim ostida metall formularga quyma qo'yish Rux, alyuminiy magniy va latundan tayyorlangan qotishmalar qo'llaniladi. Bunday quymalarning massasi 0,1 dan 20 kg gacha bo'ladi.

Aniqlik klassi 4-5 bo'lib bundan yuqori og'irlikdagilar 3 klass aniqligiga tayyorlanadi. Alyuminiy quymalarning qadir – budurlik 5-8 klassda bo'ladi.

Tayyorlanma tanlash texnologik jarayoni prokatlashda quyidagi variantlar mavjuddir.

1. Tanlangan tayyorlanma shu ishlab chiqarishda bajarilishi kerak.
2. Tayyorlanma tayyorlash usulini uzgartirish mumkin lekin detal yasash texnologik jarayonini uzgartirishga ruxsat berilmaydi
3. Tayyorlanma tayyorlash usuli uzgaradi. Buning natijasida detalni tayyorlash texnologik jarayoni ham o'zgaradi.

Kursatgich nomlari	V A R I A N T L A R	
	Birinchi	Ikkinchi
Xomashiyo turlari	Shtamplash	Prokat
Aniqlik klaslari	3	-
Qiyinchilik guruxlari	3	-
Xomashiyo og'irligi Q kg	21	23
1 tonna xomashiyoning bozor narxidagi kursatgichi Gi - sum	6000000	5000000
1 tonna metal qirindisining bozor	160000	160000

narxidagi kursatgichi	Sqir - sum	
-----------------------	------------	--

Bu xolda talaba ma`lumotnomadan berilgan dalillar orqali ish yuritadi. Bu xolda tayyorlanmaning har bir variant uchun alohida – alohida olingan natijalar bo`yicha xomashiyoning tannarxini hisoblab topishi lozim. Talaba hisoblab aniqlagan variantlar ichdan arzon bo`lgan variantni tanlab oladi.

Tayyorlanmaga ketgan metall miqdori qancha kam bo`lsa detalni tannarxi shuncha oz bo`ladi va tejamli bo`ladi. Bu tejamkorlik quyidagi formula yordamida topiladi.

$$M = Q \cdot S - (Q - q) \frac{S_{\text{qurk}}}{100} \text{ Sum}$$

Bu yerda Q – tayyorlanmani massasi (kg) hisobida

S – I kg tayyorlanmani materialining baxosi (Sum) hisobida

q – tayyor detalning massasi (kg) hisobida

$S_{\text{chik}}$  – 1 tonna chiqindining narxi (sum) hisobida ayrim rangli va qora metallar chiqindilar va shularni tayyorlash narxlari tanlanadi.

### 1 – v a r i a n t b u y i c h a.

Xar xil usulda quyma (erga qo`yilgan, mashinali) shtampaovka (qizdirib, sovuq xolda, press yordamida) tayyorlanadigan tayyorlanmalarning tan narlari quyidagi (9) formula yordamida topiladi.

$$S_{\text{max}} = \left( \frac{C_i}{1000} \cdot Q \cdot K_T \cdot K_C \cdot K_B \cdot K_M \cdot K_n \right) - (Q - q) \frac{S_{\text{qurk}}}{1000} \text{ Sum hisobida}$$

Bu yerda  $S_i$  – 1 tonna tayyorlanmaning narxi Sum hisobida

$K_T, K_s, K_V, K_M, K_n$  koefficientlar: aniqlik klassi, murakkablik guruhi, massasi, materialning markasi va ishlab chiqarish xajmiga tegishlidir.

Xomashiyoning tannarxini hisoblash jarayonida kerakli bo`lgan koefisientlarni jadvallardan tanlab, jadval bo`yicha olingan xomashiyo tannarxini chiqarish lozim.

Aytib o`tilgan ishlarni bajarilganligi tug`risidagi malumotlar qo`eida batafsil ko`rsatilgan.

Tanlangan koefisientlar queida keltirilgan.

$C_i = 6000000$  sum tonnasi

$Q = 21$  kg

$Q = 20,15$  kg

$K_T = 1$

$K_n = 0,8$

$K_c = 0,9$

$K_B = 1$

$K_M = 1,98$

$S_{chiq} = 160000$

Tanlab olingan koeffisient ko`rsatgichlariga tayangan hold xomashiyoni tan narxini anqlanadi.

$$S_{xomash} = \left( \frac{C_i}{1000} \cdot Q \cdot K_T \cdot K_C \cdot K_B \cdot K_M \cdot K_n \right) - (Q - q) \frac{S_{chiq}}{1000} =$$
$$= \left( \frac{6000000}{1000} \cdot 21 \cdot 1 \cdot 0,9 \cdot 1 \cdot 1,98 \cdot 0,8 \right) - (21 - 20,15) \frac{160000}{1000} = 172232 \quad Sum$$

Tanlangan koeffisientlarga asosan xomashiyo tannarxi quyidagicha aniqlqnadi

$S_{xom} = 172232$  sum.

Olingan tannarxlar va koeffisientlar bugunlik kundagi bozor sharoiti narxi bo`yicha taxminan olingan.

## **II – variant buyicha.**

Birinchi variant bo`yicha olingan koeffisient qiymatlari singari shundae xom ashiyoni ikkinchi usuli bilan ham hisoblab tan narx qiymat larini topib olish lozim.

Ikkinchi usulda xam quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$S_{xomash} = \frac{C_i Q}{1000} - (Q - q) \frac{S_{chiq}}{1000} \quad Sum;$$

Bu yerida:      $Q - 23$  kg  
                   $G_i - 5000000$   
                   $q - 20,15$   
                   $S_{chiq} - 160000$  sum ga teng

Tanlangan barcha qiymatlardan foydalanib maxsulotni tannarxini topib olamiz,

$$S_{xomash} = \frac{C_i Q}{1000} - (Q-q) \frac{S_{qurk}}{1000} = \frac{23 \cdot 5000000}{1000} - (23 - 20,15) \frac{160000}{1000} = 114548 \text{ sum}$$

$$S_{xom} = 114548 \text{ so'm.}$$

Aniqlangan qiymatlarga asosan ikki usul buyich olingan tannarxlar natijalarini solishtirib arzon bulgan variant bo'yicha xomashiyoni tanlab olamiz.

$$1 - \text{usul buyica} \quad S_{xom} = 172232 \text{ sum.}$$

$$2 - \text{usul buyicha} \quad S_{xom} = 114548 \text{ sum.}$$

Farqi 57684 sum

Demak 2 – usul bo'yich xomashiyo tan narxi 57684 so'mga arzonligi aniqlandi.

### **I – variant bo'yicha.**

Kupqisqichli patronli yarim avtomat tokarlik 1 A 240 II – 8 markali  
dastgoh tanlayman.

Tanlangan usul texnologik jarayonning iqtisodiy tejamkorligini asoslash.

Olinadigan qiymatlar.

$$S_{Dast} = 131500000 \cdot 1,1 = 144650000 \text{ so'm,}$$

$$f = 3,885 \cdot 1,940 = 7,55,$$

$$M_{Dvig} = 17 \text{ kvv,}$$

$$R = 16,$$

$$T_{don} = 3,74,$$

$$q_{qq} = 1,$$

$$M = 2,$$

$$R_M = 1,2,$$

$$\alpha = 0,3,$$

ishchining razryadi -3

ishlab chiqariladigan har ,ir dona xomashiyo yoki detallarga ishlov berish

operasiyalariga kerakli bulgan koeffisientlarni jadvaldan aniqlab olish uchun ularning miyyorlarini aniqlab olish lozim.

Talaba kurs ishini loyixalashda bir nechta iqtisodiy tejamkorligini hisoblab chiqadi va qaysi usul ko`proq tejamli bo`lsa shu usulni texnologik jarayonda qullaydi. Kurs loyixasi va bitiruv ishi loyixalarida zamonaviy jixozlar, zamonaviy moslamalar, moslama va keskichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bular edi .

Kurs va bitiruv ishi loyixalarini bajarishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak.

A) ishlab chiqarishni iqtisodiy tomonlama tejash uchun bir turdagi jixozlardan foydalanish ya`ni texnologik jarayonni hisoblash Yangi jixoz talab kilinmasligi kerak.

B) Loyixa jarayonida qimmat baxo, katta xajmini egallaydigan jixozlar qo`llanmaslik

V) Standart keskichlar va o`lchov asboblardan foydalanish. Qo`shimcha hisob talab qiladigan kesuvchi va o`lchov asbobni kullamaslik

G) Zamonaviy ishlab chiqarish usullardan foydalanish ishlab chiqarishini tuxtovsiz ishlashini ta`minlash

D) Bir o`rnatishda detalni bir nechta yuzasini ishlov berishga erishish.

Masalani to`g`ri echishga erishish uchun ikkita usulda texnologik jarayon tuzib olamiz va iqtisodiy tejamkorligini hisoblab chiqamiz. Qaysi mahsulotni narxi kam bo`lsa usha detal arzon hisoblanadi vash u usulni ishlab chiqarishda qullaymiz.

Detal narxini hisoblashda hama harajatlarni hisoblash kerak. Bu narxga ishchilar to`lanadigan ish xaqi operator naladchiklar to`lanadigan ish xaklari, jixozlarni emirilishi, ishlab chiqarish binolarini emirilishi bu harajatlar keltirilgan harajatlar deb yuritiladi va  $S_{n,x}$  bilan belgilanadi va quyidagi formula yordamida topiladi.

$$C_{h.x} = \frac{C_X}{M} + C_{SI} + E (K_C + K_3) \frac{tiyin}{soat}$$

$S_x$  – asosiy va qo`shimcha ish hamda operator naladchik va mashina qarzlarga to`lanadigan ish haqqi tiyin/soat hisobida.

M – ko`p jixozlilik koeffisienti. Bu koeffisient shu uchastkaga tegishli bo`lib, jixozlar soniga qarab qabul qilinadi.

$E_i$  – tejamkorlik koeffisienti bo`lib mashinasozlikda  $E_i = 0,2$

$K_S$  – kapital remont uchun soatbay emirilishiga beriladigan harajat tiyin/soat hisobida (18) formuladan.

$K_z$  – binolarni kapital remont uchun ketadigan soatbay emirilish (19) formula orqali topiladi va tiyin/soat larda hisoblanadi.

Asosiy va qo`shimcha, sostrax, operator va naladchika to`lanadigan ish xaqi quyidagi formula yordamida topiladi  $S_{i,x} = S_{i,s} \cdot 1,53$  tiyin/ soat

Bu yerda  $S_{i,s}$  - ishchining soat ta`rifi bo`yicha oladigan ish xaqi tiyin/soat hisobida 9 jadvalda Mashinasozlik sanoatida ishlaydigan ishchilarning razryad bo`yicha soatiga to`lanadigan ish haqqi ko`rsatilgan.

Bu eirda har bir koeffisient jadvaldan aniqlab olinadi va sungra  $C_X$  – xomashiyo rueidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$\frac{C_X}{M} = \frac{C_{TF} \cdot 1,15 \cdot 1,53}{M};$$

Bu yirda  $C_{TF}$  – koeffisintini 9 jadvaldan tanlab olamiz.

1,53 - turli xil ishlab chiqarish koeffisientlar yig`indisi

1,3 – normani bajarish koeffisientlar

1,09 – qushimcha ish haqqi koeffisientlar

1,077 – sostraxga beriladigan koeffisient

k – naladchik ish haqini koeffisienti  $k = 1,1 - 1,15$  [1.42 bit]

$$\frac{C_X}{M} = \frac{C_{TF} \cdot 1,15 \cdot 1,53}{M} = \frac{43,8 \cdot 1,53 \cdot 1,15}{2} = 38,53 \text{ tiyin}$$

Ishchining ish o`rnini bandlik darajasi quyidagi formula yordamida topiladi.

$$C_{SI} = C_{ki}^{bs} \cdot R_M; \left( \frac{\text{tiyin}}{\text{soat}} \right)$$

Bunda:  $C_{ki}^{bs}$  - ishchi joyidagi koeffisienti

Ommoviy va kupseriyali, ikki smenali ishlab chiqarishlar uchun  $C_{ki}^{bs} = 43,9$  tiyin

O`rtacha seriyalab ikki smenali ishlab chiqarish uchun  $C_{ki}^{bs} = 36,3$  tiyin

$R_M$  – odatdagicha nisbatan harajatning qaysi darajalilik koefficienti (ortiqcha harajatlik darajasi)

$R_m$  – ning qiymatlari quyidagi 18 jadvalda keltirilgan. Jadvalda ko`rsatilganlari o`rtacha ko`plik va ko`plab ishlab chiqarishda quyidagi (14,15,16,17) formulalar yordamida topiladi.

Tish kesuv avtomat va yarim avtomat dastgoxlar uchun

$$R_m = \left( \frac{4,68 S}{100} + 1,02 R + 0,63 M_u \right) \frac{1}{20}$$

Jilvirlash dastgoxlari uchun

$$R_m = \left( \frac{5,07 S}{100} + 1,11 R + 0,63 M_u \right) \frac{1}{20}$$

Agregat va katt xajmli dastgoxlar uchun

$$R_m = \left( \frac{4,22 S}{100} 0,93 R + 0,53 M_u \right) \frac{1}{20}$$

Boshqa har xil turdagi dastgoxlar uchun

$$R_m = \left( \frac{4,48 S}{100} 0,97 R + 0,55 M_u \right) \frac{1}{20}$$

$$R_m = \left( \frac{4,48 S}{1000} 0,97 R + 0,55 M_u \right) \frac{1}{20} = \left( \frac{4,48 \cdot 144650000}{1000} + 0,97 \cdot 16 + 0,65 \cdot 17 \right) \frac{1}{20}$$

$$= 64303,2 \frac{1}{20} = 3240,16$$

Bu yerda S – dastgoxni hisobdagi baxosi, ya`ni dastgoxni narxi tashib olib kelinishi va o`rnatilishi narxi, dastgox baxosidan 10-15% ni tashqil qilinadi va sumlarda hisoblanadi.

R – dastgoxni mexanik elektrik qismlarini ta`mirlashni qiyinlik darajasi quyidagi 18 formula yordamida topiladi.

$$R = R_H + R_0$$

Bu yerda  $R_H$  – dastgoxni mexanik qismi

$R_e$  – dastgoxni elektrik qismi

$M_u$  - dastgox elektro dvigatelning quvvati kvv.

Ishchining ish o`rnidan foydalanish jarayonida dastgox ish quvvatining pasayib ketgandagi ( $\eta_1 < 60\%$ ) to`g`rilash koeffisienti  $\varphi$  orqali soatbay harajatni quyidagi 19 formula orqali hisoblaymiz.

$$C_{c.x}^K = C_{SI} \cdot \frac{\varphi}{1.14} \frac{tiyin}{soat}$$

Bu yerda  $\varphi$  – to`g`rilash koeffisienti (20) formula bilan topiladi.

$$\varphi = 1 + \frac{\alpha (1 - \eta_3)}{\eta_3},$$

Bu yerda  $\alpha$  – ishchi ish joyidan To`la foydalanish soni quyidagi (18) jadvaldan topiladi ko`rsatilmagan xollar uchun  $\alpha \approx 0,2 \div 0,6$  ga teng qilib tanlanadi.

$\eta_3$  – dastgoxni yuklanish darajasi koeffisienti bino va dastgoxda chiqadigan kapital palajeniya o`rtacha ko`plikda ishlab chiqarishda quyidagi formula yordamida topiladi  
 $\eta_3$  – quyidagi formula yordamida topiladi

$$\eta = \frac{T_{dona}}{t_v \cdot m_{PR}} :$$

Bu yerda  $T_{ur\ don}$  – barcha donabay vaqtlarning yig`indisi.

$t_v$  – ishlab chiqarish taktikasi (7) ifoda orqali aniqlab olinadi *min /dona*.

$$\eta = \frac{T_{dona}}{t_v \cdot m_{PR}} = \frac{3,74}{4,37 \cdot 1} = 0,8558$$

Aniqlangan natijaga asosan ishlab chiqarish taktikasi 4,37 ga teng.

Aniqlangan kattaliklarga asosan tug`rilash koeffisienti (20) ifoda orqali aniqlanadi.

$$\varphi = 1 + \frac{\alpha (1 - \eta_3)}{\eta_3} = 1 + \frac{0,3(1 - 0,8558)}{0,8558} = 1,0505$$

Shunga asosan soatbay harajatni quyidagich aniqlab olaman.

$$C_{c.x}^K = C_{SI} \cdot \frac{\varphi}{1.14} = 43,9 \frac{1,0505}{1.14} = 40,45 .$$

Binolarga dastgohlarni urnatish jarayonini yoritilganligi queidagicha aniqlanadi.

O`rtacha seriyalab ishlab chiqarish uchun

$$K_0 = \frac{S \cdot 100}{3200} \frac{tiyin}{soat} ; \quad (23) \quad K_3 = \frac{F \cdot 75 \cdot 100}{3200} \frac{tiyin}{soat} ;$$

Ommaviy ishlab chiqarish koeffisienti.

$$K_c = \frac{6000 S m_\eta}{T_{um} \cdot N} \frac{tiyin}{soat} ; \quad (25) \quad K_3 = \frac{P \cdot 75 \cdot 6000 m_\eta}{T_{um} \cdot N} \frac{tiyin}{soat} ;$$

S – dastgoxni balansdagi baxosi sum hisobida

F – ishlab chiqarish foydali maydoni, yo`laklar bilan birga topiladi.

$$F = f R_f \quad m^2$$

$$F = f R_f = 1,5 \cdot 4 = 6 \quad m^2$$

$f$  - dastgoxlar o`rnatiladigan maydon  $m^2$

$R_f$  – qo`shimcha ishlab chiqarish maydoni (o`tish yo`laklari proezd va boshqalar)

$m_p$  – ishlab chiqarish operaciyasi uchun qabul qilingan dastgoxlar soni

$T_{\text{sht}}$  – ishlab chiqarish operaciyasi uchun ketgan vaqt minut hisobida

$N$  – yillik reja dona hisobida

Dastgoxni ish o`rni va egallab maydoniga qarab

$R_f$  – koeffisientini quyidagicha topamiz

Shu natijalarga asosan ishlab chiqarish koeffisienti serinnosti qo`yidagicha olinadi.

$$K_C = \frac{6000 S m_\eta}{T_{\text{um}} \cdot N} = \frac{6000 \cdot 144650000}{3,75 \cdot 55000} = 420800 \frac{\text{tiyin}}{\text{soat}}$$

$$K_3 = \frac{P \cdot 75 \cdot 6000 m_\eta}{T_{\text{um}} \cdot N} = \frac{6000 \cdot 75 \cdot 6}{3,75 \cdot 55000} = 13,091 \frac{\text{tiyin}}{\text{soat}}$$

$$C_{\text{h.x}} = \frac{C_X}{M} + C_{SI} + E_i (K_C + K_3) = 38,53 + 40,45 + 0,2 \\ (420800 + 13,091) = 84241,598 \frac{\text{tiyin}}{\text{soat}}$$

Dastgohda ishlash jarayonida eng kam bilan  $6 \text{ m}^2$  bo`lishi kerak.

Agar bundan kam maydonni egallasa ham  $6 \text{ m}^2$  deb qabul qilamiz

Hisob qilinayotgan mexanik ishlov berish jarayonning narxi quyidagicha (28) formula bilan hisoblanadi

$$I - C_{01} = \frac{C_{\text{HX}} \cdot T_{\text{um}}}{60} = \frac{84241,598 \cdot 3,75}{60} = 5265,099 \text{ tiyin hisobida}$$

**Birinchi variant bo'yicha ikkinchi dastgohning hisoblari quyidagicha 2 C 135**

**markali maxsus ko`p shpindilli bo`ylama parmash dastgohi.**

$$S = 1360000 \text{ so'm} \cdot 1,1 = 1496000 \text{ so'm}$$

$$R = 25$$

$$M_u = 17$$

$$R_M = 24600$$

$$M_U = 2$$

Ishchinig razryadi -3

$$T_{djn} = 4,004$$

$$M_{pr} = 1$$

$$f = 1,7 \cdot 1,2 = 2,04 \text{ m}^2$$

$$\alpha = 0,39$$

$$\frac{C_x}{M} = \frac{C_{TF} \cdot 1,15 \cdot 1,53}{M};$$

Bu yerda  $C_{TF}$  – koeffisintini 9 jadvaldan tanlab olamiz.

1,53 - turli xil ishlab chiqarish koeffisientlar yig`indisi

1,3 – normani bajarish koeffisientlar

1,09 – qo`shimcha ish haqqi koeffisientlar

1,077 – sostraxga beriladigan koeffisient

k – naladchik ish haqqini koeffisienti  $k = 1,1 - 1,15$  [1.42 bit]

$$\frac{C_x}{M} = \frac{C_{TF} \cdot 1,15 \cdot 1,53}{M} = \frac{43,8 \cdot 1,53 \cdot 1,15}{2} = 38,53 \text{ tiyin}$$

M- koeffisientning qiymati quyidagicha bo`ladi.

Universal dastgoxlar (tokarlik, revolver, protyajkali, parmalovchi, frezer, Randalash jilvirlash va boshqa)  $M=1$

Ishchining ish o`rnini bandlik darajasi quyidagi formula yordamida topiladi.

$$C_{SI} = C_{ki}^{bs} \cdot R_M; \left( \frac{\text{tiyin}}{\text{soat}} \right)$$

Bunda:  $C_{ki}^{bs}$  - ishchi joyidagi koeffisienti

Ommoviy va kupseriyali, ikki smenali ishlab chiqarishlar uchun  $C_{ki}^{bs} = 43,9$  tiyin

O`rtacha seriyalab ikki smenali ishlab chiqarish uchun  $C_{ki}^{bs} = 36,3$  tiyin

$R_M$  – odatdagicha nisbatan harajatning qaysi darajalilik koefficienti (ortiqcha harajatlik darajasi)

$R_m$  – ning qiymatlari quyidagi 18 jadvalda keltirilgan. Jadvalda ko`rsatilganlari o`rtacha ko`plik va ko`plab ishlab chiqarishda quyidagi (14,15,16,17) formulalar yordamida topiladi.

$$R_m = \left( \frac{4,48 S}{1000} 0,97 R + 0,55 M_u \right) \frac{1}{20}$$

$$R_m = \left( \frac{4,48 S}{1000} 0,97 R + 0,55 M_u \right) \frac{1}{20} = \left( \frac{4,48 \cdot 1496000}{1000} + 0,97 \cdot 25 + 0,55 \cdot 17 \right) \frac{1}{20}$$

$$= 6739,24 \frac{1}{20} = 336,962$$

Bu yerda S – dastgoxni hisobdagi baxosi, ya`ni dastgoxni narxi tashib olib kelinishi va o`rnatilishi narxi, dastgox baxosidan 10-15% ni tashqil qilinadi va sumlarda hisoblanadi.  
R – dastgoxni mexanik elektrik qismlarini ta`mirlashni qiyinlik darajasi quyidagi formula yordamida topiladi.

$$R=R_H + R_0$$

Bu yerda  $R_H$  – dastgoxni mexanik qismi

$R_e$  – dastgoxni elektrik qismi,

$M_u$  - dastgox elektro dvigatelning quvvati kvt.

Ishchining ish o`rnidan foydalanish jarayonida dastgox ish quvvatining pasayib ketgandagi ( $\eta_1 < 60\%$ ) to`g`rilash koeffisienti  $\varphi$  orqali soatbay harajatni quyidagi formula orqali hisoblaymiz.

$$C_{c.x}^K = C_{SI} \cdot \frac{\varphi}{1.14} \frac{\text{tiyin}}{\text{soat}}$$

Bu yerda  $\varphi$  – to`g`rilash koeffisienti quidagicha topiladi.

$$\varphi = 1 + \frac{\alpha (1 - \eta_3)}{\eta_3},$$

Bu yerda  $\alpha$  – ishchi ish joyidan To`la foydalanish soni quyidagi (18) jadvaldan topiladi ko`rsatilmagan xollar uchun  $\alpha \approx 0,2 \div 0,6$  ga teng qilib tanlanadi.

$\eta_3$  – dastgoxni yuklanish darajasi koeffisienti bino va dastgoxda chiqadigan kapital palajeniya o`rtacha ko`plikda ishlab chiqarishda quyidagi formula yordamida topiladi

$\eta_3$  – quyidagi formula yordamida topiladi

$$\eta = \frac{T_{dona}}{t_V \cdot m_{PR}} :$$

Bu yerda  $T_{ur\ don}$  – barcha donabay vaqtlarning yig`indisi.

$t_v$  – ishlab chiqarish taktikasi (7) ifoda orqali aniqlqb olinadi *min /dona*.

$$\eta = \frac{T_{dona}}{t_V \cdot m_{PR}} = \frac{4,004}{4,37 \cdot 1} = 0,916$$

Aniqlangan natijaga asosan ishlab chiqarish taktikasi  $t_v = 4,37$  ga teng.

Aniqlangan kattaliklarga asosan tug`rilash koeffisienti (20) ifoda orqali aniqlanadi.

$$\varphi = 1 + \frac{\alpha(1 - \eta_3)}{\eta_3} = 1 + \frac{0,3(1 - 0,916)}{0,916} = 1,0275$$

Shunga asosan soatbay harajatni quyidagich aniqlab olaman.

$$C_{c.x}^K = C_{SI} \cdot \frac{\varphi}{1.14} = 43,9 \frac{1,0275}{1.14} = 40,45 .$$

Binolarga dastgohlarni urnatilish jarayonini yoritilganligi queidagicha aniqlanadi.

Ommaviy ishlab chiqarish koeffisienti.

$$K_C = \frac{6000 S m_\eta}{T_{шт} \cdot N} \frac{tiyin}{soat} ; \quad K_3 = \frac{P \cdot 75 \cdot 6000 m_\eta}{T_{um} \cdot N} \frac{tiyin}{soat} ;$$

S – dastgoxni balansdagi baxosi sum hisobida

F – ishlab chiqarish foydali maydoni, yo`laklar bilan birga quidagicha topiladi.

$$F = f R_f \quad m^2$$

$$F = f R_f = 1,5 \cdot 4 = 6 \quad m^2$$

$f$  - dastgoxlar o`rnatiladigan maydon  $m^2$

$R_f$  – qo`shimcha ishlab chiqarish maydoni (o`tish yo`laklari proezd va boshqalar)

$m_p$  – ishlab chiqarish operaciyasi uchun qabul qilingan dastgoxlar soni

$T_{sht}$  – ishlab chiqarish operaciyasi uchun ketgan vaqt minut hisobida

N – yillik reja dona hisobida

Dastgoxni ish o`rni va egallab maydoniga qarab

$R_f$  – koeffisientini quyidagicha topamiz

Shu natijalarga asosan ishlab chiqarish koeffisienti serinnosti qo`yidagicha olinadi.

$$K_C = \frac{6000 S m_\eta}{T_{шт} \cdot N} = \frac{6000 \cdot 1496000}{4,004 \cdot 55000} = 40759,241 \frac{tiyin}{soat}$$

$$K_3 = \frac{P \cdot 75 \cdot 6000 m_\eta}{T_{um} \cdot N} = \frac{6000 \cdot 75 \cdot 6}{4,004 \cdot 55000} = 12,26 \frac{tiyin}{soat}$$

$$C_{h.x} = \frac{C_X}{M} + C_{SI} + E_i (K_C + K_3) = 38,53 + 40,45 + 0,2$$

$$(40759,241 + 12,26) = 8233,2802 \frac{tiyin}{soat}$$

Dastgohda ishlash jarayonida eng kam bilan 6 m<sup>2</sup> bo`lishi kerak.

Agar bundan kam maydonni egallasa ham 6 m<sup>2</sup> deb qabul qilamiz

Hisob qilinayotgan mexanik ishlov berish jarayonning narxi quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$I - C_{01} = \frac{C_{HX} \cdot T_{um}}{60} = \frac{8233,2802 \cdot 4,004}{60} = 549,427 \quad \text{tiyin hisobida}$$

**Tanlangan ikkinchi variant bo`yicha olingan natijalar I – qismi.**

**Gorizantal avtomatli ko`p shpindilli tokarlik dastgohi.**

$$S = 3613500 \cdot 1,1 = 3974850 \quad \text{sum}$$

$$R = 34$$

$$Mu = 10$$

$$M = 2$$

$$R_M = 4,097$$

$$T_{don} = 5,61 \quad \text{min}$$

$$\alpha = 0,39$$

$$f = 6,0 \cdot 1,35 = 8,1 \quad \text{m}^2$$

$$\frac{C_X}{M} = \frac{C_{TF} \cdot 1,15 \cdot 1,53}{M};$$

Bu yerda  $C_{TF}$  – koeffisientini 9 jadvaldan tanlab olamiz.

